

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MUSIQA SAVODXONLIGINI
SHAKLLANTIRISH YO’LLARI**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.21.15.037>*Raxmonova Dilshoda Nusratovna,**Termiz davlat universiteti musiqa ta’limi kafedrasи o’qituvchisi.*

Annotatsiya. Mazkur maqola umumiy o’rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf “Musiqa madaniyati” darslarida musiqa savodxonligi daqiqasini, hamda musiqa to‘garaklarini tashkil etishda o’qituvchi va o‘quvchilarning psixologik - fiziologik jihatlarini inobatga olgan holda, interfaol, interaktiv metodlardan maqsadli foydalanishni, musiqiy taassurotlarini tarkib toptirish va zaruriy musiqaga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini, kompetensiyani hosil etishni, 34 soatlik musiqaga oid savodxonlik yoki dars mashg‘ulotlarini tartib bilan bosqichma-bosqich, qay tartibda o’tilishi kerakligi haqida, soddadan murakkabga qarab yo‘naltirilishi, vaqtidan unumli foydalanish natijasida o‘quvchilarning musiqiy savodxonligiga erishish yo‘llari va vositalari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so’z: musiqa savodxonligi daqiqasi, interfaol, interaktiv metodlar, o‘quvchilarning psixologik - fiziologik jihatlari.

**СПОСОБЫ ФОРМИРОВАНИЯ МУЗЫКАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ У
УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ***Рахмонова Дильшода Нусратовна,**преподаватель кафедры музыкальное образование, Термезский государственный
университет*

Аннотация. Статья основана на интерактивных методах, учитывающих момент музыкальной грамотности на уроках «Музыкальной культуры» в начальной школе, а также психологические и физиологические аспекты работы учителей и учащихся при организации музыкальных кружков. Целенаправленное использование, составление музыкальных впечатлений и формирование необходимых музыкальных знаний, навыков, умений, компетенций, 34-часовая музыкальная грамотность или уроки поэтапно, от простых до сложных способов и средств достижения музыкальной грамотности учащихся как результат эффективного использования времени.

Ключевые слова: минуты музыкальной грамотности, интерактивные методы, психологические и физиологические аспекты учащихся.

**WAYS OF FORMING MUSICAL LITERACY IN PRIMARY SCHOOL
STUDENTS***Rakhmonova Dilshoda Nusratovna,**Teacher, Termiz State University*

Abstract. The article is based on interactive methods that take into account the moment of musical literacy in the lessons of «Musical culture» in elementary school, as well as the psychological and physiological aspects of the work of teachers and students in organizing music circles. Purposeful use, compilation of musical impressions and the formation of the necessary musical knowledge, skills, abilities, competencies, 34-hour musical literacy or lessons in stages, from simple to complex ways and means of achieving musical literacy of students as a result of effective use of time.

Keywords: minutes of musical literacy, interactive methods, psychological and physiological aspects of students.



Mamlaktimizda ta’lim tizimini takomillashtirish, o‘quvchilarning o‘quv materialini idrok qilishi hamda musiqa vositasida, tarbiyalash borasida, musiqa o‘qitish metodlari, dars tarkibi, musiqiy foliyatlarni amalga oshirish yuzasidan o‘quvchilarning imkoniyatlari, sinfdan va maktabdan tashqari musiqaga doir ishlarni tashkil qilish va boshqa ilmiy-nazariy jihatlar yuzasidan ayrim ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan va bugungi kunda olib borilmoqda.

“Musiqa madaniyati” fani dasturida, o‘quvchiga musiqa ta’limi berish bilan bir qatorda uning ijodkorlik qobiliyatini o‘stirish, vokal-xor ko‘vikma va malakalarini rivojlantirish, musiqani idrok etish, musiqa savodxonligi, ritmik jo‘r bo‘lish kabi mahoratlarini oshirish alohida uqtirilgan [2].

Ma’lumki, boshlang‘ich sinflarda musiqa ta’limining poydevori quriladi. Unda musiqaga oid barcha bilimlar (xor bo‘lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqa ijodkorligi, musiqaga mos harakatlarni bajarish) beriladi [1]. Musiqa savodi mustaqil dars faoliyati sifatida amal qilinmay, balki boshqa faoliyatlar jarayonida musiqa asarlarini badiiy o‘rganish va ijro etish usullarini savodxonlik asosida bajarish uchun qo‘llaniladi. Bir so‘z bilan aytganda, musiqag oid savodxonlik darsning ta’limiy vazifasini bajaradi.

Biz ushbu ta’limiy vazifalarni inobatga oлган holda, ilmiy izlanishlarimiz natijasida 34 soatlik musiqa madaniyati darslarining musiqa savodxonligini o‘rganish davrilari uslubiyotini ishlab chiqdik. Maqsadimiz boshlang‘ich sinf o‘quvchilari boshqa fanlarning nazariy savodxonligini chuqurlashtirib o‘rganganliklari kabi, musiqa darslarida ham musiqa savodxonligidan alohida bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyaga erishish yo‘llarini o‘rgatishdan iborat. Musiqa madaniyati darslaridagi ko‘plab uchrayotgan quyidagi xato-kamchiliklarni bartaraf etish lozim:

- dars mobaynida oddiy nota daftariga behuda vaqt sarflashlar;
- o‘qituvchi dars mobaynida barcha o‘quvchilarga musiqaga oid belgilarni nota daftarlariiga to‘liq yozib berolmaslik holati;
- o‘quvchilarning musiqaga doir belgilarni yozishlaridagi kamchiliklar;
- xafatasiga bir soat o‘tilgan mashg‘ulotda yetarlicha nazariy bilimga erisha olmaslik holati;
- qoidalarda yozilgani kabi yozolmaslik holatlari;
- yozish va yod olish davrida tez yoddan chiqib ketish holatlari;
- berilgan qo‘shiqlar va kuylarni mustaqil o‘qiy olmaslik holatlari;
- uyga berilgan vazifani qoniqarli-qoniqarsiz bajarib kelish holatlari aniqlandi.

Kamchiliklar va muammolardan kelib chiqqan holda, boshlang‘ich sinfda o‘tiladigan musiqa savodxonligini dars va darsdan tashqari daqiqasida qo‘shimcha manba sifatida o‘qitilishi ta’lim-tarbiya sifat va samaradorligini oshirishda yaqindan yordam beradi deb hisoblaymiz.


Bilamizki, dars mobaynida o‘qituvchi o‘quvchilarga interfaol metodlardan foydalangan holda darsni tashkil etishi hechkimga sir emas. Lekin musiqa madaniyati fanida interfaol metodlarning asosiy beshta chiziqdan toki musiqiy dinamik belgilargacha husnixat usulida o‘rgatilishi ilmiy izlanishlarimiz yangiligi xisoblanadi. Bunibir soatlik dars mashg‘uloti misolida ko‘rib chiqamiz.

9-mashg‘ulot


Mavzu: Notalarning bo‘linishi, ularning cho‘zimi hamda elementlarini o‘rganish deb oladigan bo‘lsak, bunda o‘quvchilar:

- birinchi mashg‘ulot mazmunini, ya’ni, nota nima ekanligi, notalarning bo‘linishi, ularning cho‘zimi haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar.
- turli xil rasmlar yordamida notalarning nomi bilan tanishadilar.(1-rasm)
- klavishda notalarning joylashuvini o‘rganadilar; (2-rasm)

1-rasm




2-rasm




Notalarning bo‘linishini o‘rganadilar;

3-rasm




Мавзудан kelib chiqqan holda qiziqarli boshqotirma va topshiriqlar beriladi;
(4-5-rasmlar)

4-rasm




5-rasm




Butun, yarim, chorak va nimchorak notalarni berilgan nuqtachalar ustidan qalam yordamida

yozing; (bunda o‘quvchi notalarni husnixat usuli vasitasi yordamida o‘rganishi ularing bilim, ko‘nikma, malaskasi shakllantiriladi)


Butun nota 6-rasm




Yarimtalik nota



Choraktalik nota



Nimchoraktalik nota



Notalarning bo‘linishini she’riy tarzda o‘rganamiz! (o‘quvchilar notalarning bo‘linish qoidasini she’riy tarzda yod olishlari, ularning musiqa savodxonligiga qiziqishlarini yana ham oshiradi, ularning ruhiyatiga ta’sir etadi.)


7-rasm






Uyga vazifa; Ushbu berilgan topshiriqni mustaqil bajaring! (o‘quvchilar berilgan vazifani xato-kamchiliklarsiz mustaqil najarib kelish imkonini beradi)

8-rasm



Butun nota




Yarimtalik nota



Choraktalik nota



Nimchoraktalik nota



Mavzudan kelib chiqqan holda, qiziqarli boshqotirma va topshiriqlar beriladi;

9-rasm





Zamonaviy o‘qituvchi ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni puxta egallagan, ularni tahlil qilish va amaliyotga joriy etish lozim.

Boshlang‘ich sinflarda musiqa madaniyati darslarining musiqa savodxonligidan yillar mobaynida o‘qituvchi hamda o‘quvchini qiyab kelayotgan muammo va kamchiliklar yuqoridagi interfaol matodlar, husnixat usullari vositasida bartaraf atishga harakat qilindi va natijada;

dars mobaynida oddiy nota daftaridan emas, balki, savodxonlikni shakllantirib, uni rivojlanadiradigan vositasi borligi;

o‘qituvchi dars mobaynida barcha o‘quvchilarga musiqaga oid belgilarni nota daftarlariga to‘liq yozib berolmaslik holati emas balki, barchaning xusnixat daftarida musiqaga tegishli ma’lumotlarning mujassam ekanligi;

o‘quvchilarning musiqaga oid belgilarni yozishdagi kamchiliklari husnixat yordamida bartaraf etilishi;

xaftasiga bir soat o‘tilgan mashg‘ulotda yetarlicha nazariy bilimga erisha olmaslik holatida berilgan ma’lumotlar nazariy bilimlarda ko‘makchi;

musiqaga doir belgililar qoidalarda yozilgani kabi amalda yozaolmaslik holatlarida, musiqaga tegishli belgililar husnixat usuli yordamida bartaraf etilganligi;

yozish va yod olish davrida tez yoddan chiqib ketish holatlarida, qoidalar, she’rlar hamda alohida mustaqil topshiriqlar berilganligi;

berilgan qo‘schiqlar va kuylarni mustaqil o‘qiy olmaslik holatlarida, o‘quvchilar musiqasovodxonligiga to‘laqonli erishganligi;

uyga berilgan vazifani qoniqarli-qoniqarsiz bajarib kelish holatlarida, musiqa savodxonligida uy vazifasiga ham alohida e’tibor qartilganligi, ushbu savodxonlikni o‘quvchi hamda o‘qituvchi uchun dasturi amal bo‘lib xizmat qilishi aniqlandi.

Xotima sifatida aytish mumkinki, boshlang‘ich sinflarda ta’lim olayotgan o‘quvchilarda musiqa ta’limining poydevori shakllantiriladi. Shuning uchun 1-sinfdan boshlab o‘quvchilarni musiqaga qiziqtirish, musiqaga taalluqli taassurotlarini tarkib toptirish, zaruriy musiqaga oid ko‘nikma va malakalarini hosil etish asosiy vazifa qilib qo‘yiladi.

Bu vazifalarни amalgalash oshirish ko‘p jihatdan o‘qituvchining bilimi va mahoratiga bog‘liq. Axborot oqimi keskin ortgan, turli yangiliklar hayotimizga shitob bilan kirib kelgan davrda mustaqil, tanqidiy fikrlash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lgan, yangilikni o‘rganishga doim tayyor turgan, hamkorlikdan cho‘chimaydigan, muloqotga erkin kirisha oladigan shaxsni tarbiyalash ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi bo‘lishi kerak va bu borada ta’limda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining qo‘llanilishiga yo‘l ochilishi maqsadga erishish yo‘lidagi to‘g‘ri qadam.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. D.N.Raxmonova “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqa savodxonligi” nomli o‘quv qo‘llanma. “Innovatsiya-Ziyo” Toshkent 2020-yil
2. D.N.Raxmonova “Elektron magnitli musiqiy doska yordamida o‘quvchilarning musiqa fanidan bilim darajasini oshirish” nomli uslubiy qo‘llanma. Toshkent 2020-yil
3. G.M Sharipova, G.T.Tojiyeva “Musiqa metodikasi” Toshkent 2021-yil